

HUDUDIY IQTISODIY-IJTIMOIIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI

Yuldasheva Saida Nematovna

Buxoro davlat texnika universiteti
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası
dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston hududlarini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi hududlarda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning mavjud holatini tahlil qilish, muammolarni aniqlash hamda ularni hal etishning ilmiy asoslangan yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda statistik tahlil, korrelyatsion tahlil, SWOT-tahlil, qiyosiy tahlil va ekspert so‘rov metodlaridan foydalanilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston hududlarida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotgan bo‘lsa-da, moliyalashtirish, infrastruktura, kadrlar tayyorlash va raqamlashtirish sohasida bir qator muammolar mavjud. Maqolada hududlarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli, innovatsion klaster yondashuvi va raqamli transformatsiya strategiyasi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, hududiy rivojlanish, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish, innovatsiya, klaster yondashuv, raqamli transformatsiya, moliyalashtirish, biznes muhit, O‘zbekiston.

Аннотация

В данной статье научно исследованы вопросы развития малого бизнеса и предпринимательской деятельности в процессе социально-экономического развития регионов Узбекистана. Целью исследования является анализ текущего состояния развития малого бизнеса и предпринимательства в регионах, выявление существующих проблем и разработка научно обоснованных путей их решения. В работе использованы методы статистического анализа, корреляционного анализа, SWOT-анализа, сравнительного анализа и экспертного опроса. Полученные результаты показывают, что, несмотря на динамичное развитие малого бизнеса и предпринимательства в регионах Узбекистана, сохраняется ряд проблем в сфере финансирования, инфраструктуры, подготовки кадров и цифровизации. В статье предложены усовершенствованная модель развития малого бизнеса и предпринимательства в регионах, инновационный кластерный подход и стратегия цифровой трансформации.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, региональное развитие, социально-экономическое развитие, инновации, кластерный подход, цифровая трансформация, финансирование, бизнес-среда, Узбекистан.

Abstract

This article scientifically investigates the issues of developing small business and entrepreneurship in the socio-economic development of regions of Uzbekistan. The purpose of the research is to analyze the current state of small business and entrepreneurship development in the regions, identify problems, and develop scientifically based solutions. Statistical analysis, correlation analysis, SWOT analysis, comparative analysis, and expert survey methods were used. The results show that despite the rapid development of small business and entrepreneurship in Uzbekistan, there are a number of challenges in financing, infrastructure, human resources training, and digitalization. The article proposes an improved model for developing small business and entrepreneurship, an innovative cluster approach, and a digital transformation strategy.

Keywords: small business, entrepreneurship, regional development, socio-economic development, innovation, cluster approach, digital transformation, financing, business environment, Uzbekistan.

KIRISH

Hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish har qanday davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy qudrati ko'p jihatdan kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Xususan, OECD ma'lumotlariga ko'ra, a'zo davlatlarda kichik va o'rta biznes korxonalari umumiy bandlikning 60-70 foizini, yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning 50-60 foizini ta'minlaydi (OECD). Shu boisdan, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni¹ hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda kichik biznes va tadbirkorlikka alohida e'tibor qaratilishi zarurligini belgilab berdi. Ushbu strategiyada tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash kabi ustuvor yo'nalishlar aks ettirilgan. Bugungi kunda O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining soni 700 mingdan ortiq bo'lib, ular YaIMda 56,5 foiz ulushni tashkil etadi (Milliy Statistika qo'mitasi). Biroq, hududlar kesimida kichik biznesning rivojlanish darajasida sezilarli tafovutlar mavjud bo'lib, bu holat hududiy nomutanosiblikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini hududlar kesimida rivojlantirishda quyidagi asosiy muammolar mavjud: birinchidan, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, ayniqsa qishloq hududlarida kredit olish sharoitlarining murakkabligi; ikkinchidan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi; uchinchidan, malakali kadrlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvar PF-60-son "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

tayyorlash tizimining mehnat bozori talablariga mos kelmasligi; to'rtinchidan, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni iqtisodiy nazariyada keng tadqiq etilgan. Shumpeter J.A. tadbirkorlikni iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida talqin qilgan hamda innovatsiyalarni ishlab chiqarish omillarini yangi kombinatsiyalash jarayoni sifatida izohlagan [3]. Uning konsepsiyasida tadbirkor iqtisodiy tizimda tarkibiy o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi subyekt sifatida baholangan.

Drucker P.F. tadbirkorlikni tizimli boshqaruv jarayoni bilan bog'lab, innovatsiyani amaliy faoliyatning markaziy elementi sifatida ko'rsatgan [4]. U kichik biznesning moslashuvchanligi va resurslardan samarali foydalanish qobiliyatini asoslab bergan. Porter M.E. esa hududiy raqobat ustunliklarini shakllantirishda klaster yondashuvining ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilgan hamda hududiy kooperatsiya iqtisodiy samaradorlikni oshirishini ko'rsatgan [5].

Storey D.J. kichik biznesning bandlik yaratishdagi rolini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilgan va kichik korxonalar yangi ish o'rinlarining asosiy manbai ekanligini aniqlagan [6]. Acs Z.J. va Audretsch D.B. bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida kichik biznes innovatsion faollik va texnologik yangilanish jarayonlarida muhim o'rin tutishini asoslab bergan [7]. Audretsch D.B. tadbirkorlik jamiyatida kichik biznes iqtisodiy o'sish va hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlovchi institut sifatida shakllanganini ta'kidlagan [16]. Baumol W.J. innovatsion tadbirkorlik iqtisodiy samaradorlikni oshirishini mikroiqtisodiy yondashuv asosida izohlagan [17].

Xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida ham kichik biznesning makroiqtisodiy ahamiyati asoslab berilgan. OECD hisobotida kichik va o'rta biznes bandlik va qo'shimcha qiymat yaratishda yetakchi o'rin egallashi qayd etilgan [8]. Jahon banki hisobotida ishbilarmonlik muhitini yaxshilash kichik biznes rivojlanishining muhim institutsional sharti sifatida baholangan [9]. Osiyo taraqqiyot banki (2024) Markaziy Osiyoda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash infratuzilma va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish bilan bog'liqligini ko'rsatgan [19].

MDH mamlakatlari olimlari kichik biznesni tashkil etish va boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o'rgangan. Busygin A.V. tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy mohiyatini tizimli yondashuv asosida yoritgan [13]. Gorfinkel V.Ya. kichik biznesni boshqarishning amaliy jihatlarini tahlil qilgan [14]. Tepman L.N. xorijiy mamlakatlar tajribasini umumlashtirib, kichik biznesni rivojlantirish omillarini aniqlagan [15].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar hududiy rivojlanish va kichik biznes o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan. Bekmurodov A.Sh. kichik biznesni rivojlantirishning institutsional muammolarini tahlil qilgan [10]. Ziyodullayev Sh.K. hududiy iqtisodiyotni boshqarishda kichik biznesning ulushini statistik ma'lumotlar asosida baholagan [11]. Sirojiddinov N.T. tadbirkorlik muhitini yaxshilash mexanizmlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslab bergan [12]. Karimov N.X. innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlagan [20].

METODOLOGIYA

Statistik tahlil metodi yordamida kichik biznes subyektlarining soni, ularning YaIMdagi ulushi, bandlik ko'rsatkichlari, investitsiyalar hajmi va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Korrelyatsion tahlil orqali kichik biznes rivojlanishi va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik darajasi aniqlangan. SWOT-tahlil orqali hududlarda kichik biznes va tadbirkorlikning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari baholangan. Qiyosiy tahlil yordamida turli hududlar va mamlakatlar tajribasi solishtirma tadqiq etilgan. Ekspert so'rovi metodi orqali soha mutaxassislarining fikr va takliflari to'plangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarning barqaror iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi mamlakat umumiy taraqqiyotining muhim tarkibiy qismidir. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda hududiy rivojlanish omillari sifatida inson kapitali, infratuzilma, innovatsiyalar va tadbirkorlik muhitining sifati alohida ta'kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hududiy iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Ular mahalliy resurslarni samarali safarbar etadi, yangi ish o'rinlari yaratadi, ichki bozorni to'ldiradi hamda aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Kichik biznesning hududiy rivojlanishdagi o'rnini bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, u bandlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda yirik sanoat korxonalari yetarli bo'lmagan sharoitda oilaviy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohasi va kichik ishlab chiqarish korxonalari aholi daromad manbalarini shakllantiradi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, kichik biznes mahalliy xomashyo va tabiiy resurslarni qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat yaratadi. Natijada hudud iqtisodiy salohiyati oshadi va eksport imkoniyatlari kengayadi. Uchinchidan, kichik biznes raqobat muhitini shakllantirib, bozor mexanizmlarining samarali ishlashini ta'minlaydi.

Hududlarda kichik biznesni rivojlantirish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud. Moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, kredit stavkalarining nisbatan yuqoriligi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, biznesni yuritish bo'yicha bilim va ko'nikmalarning pastligi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, ayrim hududlarda logistika tizimining sustligi va bozorlar bilan integratsiyaning yetarli emasligi mahsulot realizatsiyasini qiyinlashtiradi. Innovatsion faoliyatning past darajasi esa kichik korxonalar raqobatbardoshligini cheklaydi. Mazkur muammolarni bartaraf etish va kichik biznesni rivojlantirishni takomillashtirish uchun kompleks yondashuv zarur. Avvalo, institutsional muhitni yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritish jarayonidagi ma'muriy to'siqlarni qisqartirish, davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish, soliq tizimini soddalashtirish biznes muhitini sezilarli darajada yaxshilaydi. "Yagona darcha" tamoyilining samarali ishlashi vaqt va xarajatlarni kamaytiradi hamda norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartiradi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish ham dolzarb masalalardan biridir. Imtiyozli kreditlar, kafillik jamg'armalari, mikromoliyalashtirish institutlari va lizing mexanizmlarini rivojlantirish kichik biznesning investitsiya

imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, innovatsion va eksportga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish alohida e'tiborni talab qiladi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik asosida hududiy biznes inkubatorlar va texnoparklarni tashkil etish startap loyihalarini qo'llab-quvvatlashda samarali vosita bo'lishi mumkin. Hududiy klaster yondashuvini rivojlantirish ham muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi, turizm, hunarmandchilik va sanoat klasterlari kichik korxonalarni yirik ishlab chiqaruvchilar bilan integratsiyalash imkonini beradi. Bu esa ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlarida qo'shimcha qiymat yaratish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Klaster modeli hudud ichida kooperatsiyani kuchaytirib, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Inson kapitalini rivojlantirish kichik biznesni takomillashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish, marketing va raqamli texnologiyalar bo'yicha bilimlarni kengaytirish kichik korxonalar barqarorligini ta'minlaydi. Oliy ta'lim muassasalari va kasb-hunar markazlarida amaliy tadbirkorlik ta'limini rivojlantirish bu jarayonni jadallashtiradi. Raqamlashtirish va innovatsiyalarni joriy etish ham hududiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Elektron savdo platformalari orqali mahsulotlarni kengroq bozorga chiqarish, logistika tizimini avtomatlashtirish, onlayn to'lov tizimlarini joriy etish kichik biznesning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik korxonalar moslashuvchanligi va tezkorligi bilan ustunlikka ega bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy yo'naltirilgan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hududiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Ayollar va yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirish, oilaviy biznesni rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni biznes orqali hal etishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Bu esa kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Hududni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishda kichik biznes va tadbirkorlikni takomillashtirish tizimli va integratsiyalashgan yondashuvni talab etadi. Institutsional islohotlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish, inson kapitalini oshirish hamda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish o'zaro uyg'un holda amalga oshirilgandagina hududiy iqtisodiy o'sish barqaror va inklyuziv xarakter kasb etadi. Natijada hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovut kamayadi, bandlik oshadi va aholi turmush darajasi yuksaladi.

O'zbekiston hududlarida kichik biznesning umumiy holati. Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2019-2024 yillar davomida O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining soni barqaror o'sish tendensiyasini namoyish etgan. Agar 2019-yilda kichik biznes subyektlarining soni 466,8 mingni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 723,5 minggacha oshgan, ya'ni o'sish sur'ati 55 foizni tashkil etgan. Kichik biznesning YaIMdagi ulushi ham sezilarli o'sishni namoyish etgan: 2019-yildagi 47,2 foizdan 2024-yilga kelib 56,5 foizgacha ko'tarilgan. Bu ko'rsatkich mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida kichik biznesning tobora muhim ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval.
**O'zbekistonda kichik biznes rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
(2019-2024 yil)¹**

Ko'rsatkich	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
KB subyektlari soni (ming)	466,8	489,3	531,7	592,4	658,1	723,5
YaIMdagi ulushi, foizda	47,2	48,5	50,3	52,8	54,7	56,5
Band aholining ulushi, foizda	76,3	75,8	77,1	78,5	79,2	80,4
Eksport ulushi, foizda	18,6	17,2	20,4	22,8	25,3	27,1

Hududlar kesimida kichik biznes rivojlanishining tahlili. Hududlar bo'yicha tahlil natijalari kichik biznes rivojlanishida sezilarli nomutanosibliklar mavjudligini ko'rsatadi. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 1000 aholi boshiga to'g'ri keladigan kichik biznes subyektlari soni mos ravishda 31,4 va 24,7 ni tashkil etgan holda, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida bu ko'rsatkich atigi 11,2 va 9,8 ni tashkil etgan. Korrelyatsion tahlil natijalari kichik biznes subyektlari sonining aholi jon boshiga YaIMga ta'siri kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjudligini ko'rsatdi ($r=0,847$, $p<0,01$). Bu natija kichik biznesni rivojlantirishning hududiy iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatishini statistik jihatdan tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval.
Hududlar bo'yicha kichik biznes rivojlanish ko'rsatkichlari (2024-yil)²

Hudud	KB soni (ming)	1000 aholiga	YaIMdagi ulushi, foizda
Toshkent shahri	98,7	31,4	68,3
Toshkent viloyati	72,3	24,7	62,5
Samarqand viloyati	65,8	17,2	55,8
Buxoro viloyati	41,2	21,5	57,2
Farg'ona viloyati	58,4	15,8	52,4
Andijon viloyati	48,6	15,2	51,7
Navoiy viloyati	21,5	22,3	45,6
Qashqadaryo viloyati	38,9	11,2	43,8
Surxondaryo viloyati	27,4	9,8	41,2
Qoraqalpog'iston R.	22,1	11,5	39,4

Ekspert so'rovi natijalari. 30 nafar ekspert ishtirokida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, hududlarda kichik biznes rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar quyidagicha baholangan: moliyaviy resurslarga erishishdagi qiyinchiliklar (ekspertlarning 87 foizi), infrastrukturaning yetarli emasligi (73 foiz), malakali kadrlar yetishmasligi (68 foiz), ma'muriy to'siqlar (62 foiz), raqamli texnologiyalardan foydalanishning pastligi (58 foiz), bozor ma'lumotlariga ega bo'lmaslik (52 foiz).

SWOT-tahlil natijalari. Hududlarda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan o'tkazilgan SWOT-tahlil natijalari quyidagi asosiy xulosalarni berdi (3-jadval):

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

² Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

3-jadval.

Hududlarda kichik biznes va tadbirkorlikning SWOT-tahlili¹

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
- davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosatining kuchayishi; - mehnat resurslari ko'pligi; - tabiiy resurslarning boyligi; - ichki bozorning kengayishi; - huquqiy bazaning takomillashishi.	- moliyaviy resurslarga erishishning cheklanganligi; - texnologik zaiflik; - kadrlar malakasining pastligi; - logistik infratuzilmaning yetishmasligi; - raqamlashtirish darajasining pastligi.
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
- xalqaro hamkorlikning kengayishi; - raqamli iqtisodiyotga o'tish; - erkin iqtisodiy hududlar; - eksport salohiyatining oshishi; - turizm sohasining rivojlanishi.	- global iqtisodiy beqarorlik; - inflyatsiya xavfi; - tashqi raqobatning kuchayishi; - iqlim o'zgarishi ta'siri; - geosiyosiy xatarlar.

Korrelyatsion tahlil natijalari. Kichik biznes rivojlanishi va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik darajasini aniqlash maqsadida o'tkazilgan korrelyatsion tahlil quyidagi natijalarni berdi (4-jadval):

4-jadval.

Korrelyatsion tahlil natijalari²

O'zgaruvchilar juftligi	<i>r</i> koeffitsiyenti	<i>p</i> qiymati
KB soni - Jon boshiga YaIM	0,847	< 0,01
KB soni - Bandlik darajasi	0,792	< 0,01
KB soni - Aholi daromadlari	0,815	< 0,01
KB soni - Investitsiyalar hajmi	0,763	< 0,01
KB soni - Eksport hajmi	0,681	< 0,01

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kichik biznes subyektlari soni va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasida yuqori darajada ijobiy korrelyatsiya mavjud. Eng yuqori korrelyatsiya kichik biznes soni va jon boshiga YaIM o'rtasida kuzatilgan ($r = 0,847$), bu kichik biznesni rivojlantirishning hududiy iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Tadbirkorlar so'rovi natijalari. 150 nafar tadbirkor ishtirokida o'tkazilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 72 foizi kredit olishdagi qiyinchiliklarni asosiy muammo sifatida ko'rsatgan. Tadbirkorlarning 65 foizi soliq yukining og'irligidan shikoyat qilgan, 58 foizi malakali ishchi kuchi topishda muammolarga duch kelayotganini ta'kidlagan. Raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tadbirkorlarning atigi 34 foizi o'z faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'liq foydalanishini qayd etgan.

Natijalarning talqini. Olingan natijalar O'zbekiston hududlarida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining ijobiy dinamikaga ega ekanligini, ayni paytda bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Kichik biznes subyektlari sonining

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

barqaror o'sishi (2019-2024 yillarda 55 foiz) davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning samarasini aks ettiradi. Biroq, hududlar orasidagi nomutanosiblik (1000 aholi boshiga kichik biznes subyektlari soni 9,8 dan 31,4 gacha) hududiy rivojlanish siyosatida differensial yondashuvning zarurligini ko'rsatadi.

Korrelyatsion tahlilning yuqori natijasi ($r = 0,847$) Stori va Aks va Audretschi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar xulosalarini tasdiqlaydi, ya'ni kichik biznesni rivojlantirish hududiy iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Bu natija O'zbekiston kontekstida ham kichik biznesga investitsiya qilishning yuqori iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, hududlarda kichik biznes rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muammolarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Moliyaviy muammolar: Ekspertlarning 87 foizi va tadbirkorlarning 72 foizi moliyaviy resurslarga erishish qiyinligini ta'kidlagan. Bu muammo, ayniqsa, qishloq hududlarida jiddiy bo'lib, bank kreditlarining foiz stavkasi yuqoriligi, garov ta'minotining murakkabligi va kreditlash muddatlarining qisqaligi asosiy sabablar sifatida qayd etilgan.

Infratuzilma muammolari: Hududlarning ko'pchiligida, ayniqsa past rivojlangan hududlarda, ishlab chiqarish infratuzilmasi - yo'llar, kommunikatsiyalar, energiya ta'minoti - yetarli darajada rivojlanmagan. Bu holat ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini pasaytiradi.

Kadrlar muammosi: Malakali kadrlar yetishmasligi, ayniqsa texnik va raqamli ko'nikmalar sohasida, kichik biznesning innovatsion salohiyatini cheklaydi. Tadbirkorlarning 58 foizi malakali ishchi kuchi topishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Raqamlashtirish muammosi: Tadbirkorlarning atigi 34 foizi raqamli texnologiyalardan to'liq foydalanayotganligi, kichik biznesning raqobatbardoshligini pasaytiruvchi jiddiy omil hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa, elektron tijorat, raqamli marketing va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish sohasida yaqqol namoyon bo'ladi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli mamlakatlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning integratsiyalashgan tizimlarini qo'llagan. Janubiy Koreyaning tajribasi alohida diqqatga sazovor bo'lib, bu mamlakatda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish agentligi (SMBAs) faoliyati orqali moliyaviy, texnik va ma'lumot qo'llab-quvvatlashining yaxlit tizimi yaratilgan. Germaniyaning "Mittelstand" modeli oilaviy bizneslarni rivojlantirishning noyob tajribasini taqdim etadi.

Turkiyaning KOSGEB dasturi kichik biznesga moliyaviy yordam, ta'lim va konsalting xizmatlarini birlashtirgan holda taqdim etish orqali samarali natijalarni ko'rsatgan. Xitoyning maxsus iqtisodiy zonalar tajribasi esa hududiy rivojlanishda klaster yondashuvning samaradorligini isbotlagan.

O'zbekiston kontekstida ushbu tajribalardan oqilona foydalanish mumkin, biroq mahalliy sharoitlar, madaniy xususiyatlar va iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga olgan holda moslashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish zarur.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, hududlarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli taklif etiladi. Ushbu model quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

Birinchidan, moliyalashtirish tizimini takomillashtirish: hududiy mikromoliya tashkilotlarini kengaytirish, kredit kafolatlar fondlarini tashkil etish, venchar moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish, islomiy moliyalashtirish vositalaridan foydalanish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish.

Ikkinchidan, infratuzilmani rivojlantirish: kichik sanoat zonalarini tashkil etish, biznes inkubatorlar va akseleratorlar tarmog'ini kengaytirish, logistik markazlarni rivojlantirish, raqamli infratuzilmani mustahkamlash.

Uchinchidan, kadrlar salohiyatini oshirish: tadbirkorlik ta'limini oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga integratsiya qilish, uzluksiz malaka oshirish tizimini yaratish, mentorlik dasturlarini joriy etish, xalqaro tajriba almashish dasturlarini kengaytirish.

To'rtinchidan, raqamli transformatsiya strategiyasi: kichik biznesni raqamlashtirish dasturlarini ishlab chiqish, elektron tijorat platformalarini rivojlantirish, raqamli marketing ko'nikmalarini o'rgatish, davlat xizmatlari elektron platformalarini takomillashtirish.

Porter nazariyasiga asoslangan holda, O'zbekiston hududlari uchun innovatsion klaster modelini joriy etish taklif etiladi. Har bir hudud o'zining tabiiy resurslari, inson kapitali va an'anaviy kasblariga mos keladigan ixtisoslashtirilgan klasterlarni rivojlantirishi zarur. Masalan, Buxoro viloyati uchun turizm-hunarmandchilik klasteri, Farg'ona vodiysi uchun argo-qayta ishlash klasteri, Navoiy viloyati uchun sanoat-logistik klasteri maqsadga muvofiq bo'ladi.

Klaster yondashuvi korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, bilim va texnologiya almashinuvini tezlashtirish, umumiy infratuzilmadan samarali foydalanish hamda hududning raqobat ustunliklarini shakllantirish imkonini beradi.

Hududlarda kichik biznes va tadbirkorlikni raqamli transformatsiya qilish uchun bosqichma-bosqich strategiya taklif etiladi. Birinchi bosqichda (2025-2026) raqamli savodxonlik dasturlari, ikkinchi bosqichda (2026-2027) raqamli infratuzilmani mustahkamlash, uchinchi bosqichda (2027-2028) to'liq raqamli ekotizimni shakllantirish ko'zda tutiladi.

5-jadval.

Taklif etilayotgan tadbirlardan kutilayotgan natijalar¹

Yo'nalish	Joriy holat (2024-yil)	Kutilayotgan (2028-yil)
KB subyektlari soni (ming)	723,5	950-1000
YaIMdagi ulushi, foizda	56,5	63-65
Raqamlashtirish darajasi, foizda	34	65-70
Eksport ulushi, foizda	27,1	35-40
Hududiy nomutanosiblik indeksi	3,2	2,0-2,2

¹ Muallif ishlanmasi

5-jadvalda Raqamli transformatsiya doirasida elektron tijorat platformalarini rivojlantirish, raqamli to'lov tizimlarini kengaytirish, bulutli texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlilini kichik biznesga tatbiq etish kabi yo'nalishlarni amalga oshirish taklif etildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi asosiy xulosalar shakllantirish mumkin:

Birinchidan, O'zbekiston hududlarida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati so'nggi yillarda sezilarli o'sish tendensiyasini namoyish etmoqda. 2019-2024 yillar davomida kichik biznes subyektlarining soni 55 foizga o'sgan, YaIMdagi ulushi 47,2 foizdan 56,5 foizga ko'tarilgan. Biroq, hududlar orasidagi nomutanosiblik (1000 aholi boshiga 9,8 dan 31,4 gacha) sezilarli bo'lib qolmoqda.

Ikkinchidan, korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, kichik biznes rivojlanishi va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasida yuqori darajada ijobiy bog'liqlik mavjud ($r = 0,847$, $p < 0,01$), bu esa kichik biznesni rivojlantirishning hududiy iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, hududlarda kichik biznes rivojlanishining asosiy muammolari moliyalashtirish, infratuzilma, kadrlar tayyorlash va raqamlashtirish sohasida to'plangan. Bu muammolarni hal etish uchun integratsiyalashgan va differensial yondashuv zarur.

To'rtinchidan, taklif etilayotgan takomillashtirilgan model, innovatsion klaster yondashuvi va raqamli transformatsiya strategiyasini amaliyotga joriy etish hududlarda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi.

Beshinchidan, xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning integratsiyalashgan tizimlari (moliyaviy, texnik, ma'lumot, ta'lim komponentlarini birlashtirgan) eng samarali hisoblanadi. O'zbekiston uchun Janubiy Koreya, Turkiya va Germaniya tajribalarini mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan:

Davlat siyosati sohasida: kichik biznesni moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish, hududiy kredit kafolatlar fondlarini tashkil etish, soliq yukini kamaytirish va soliq imtiyozlarini kengaytirish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish dasturini davom ettirish zarur.

Infratuzilma sohasida: kichik sanoat zonalari va biznes inkubatorlar tarmog'ini kengaytirish, transport-logistik infratuzilmani rivojlantirish, raqamli infratuzilmani mustahkamlash, ayniqsa qishloq hududlarida internet tarmog'ini kengaytirish lozim.

Ta'lim sohasida: tadbirkorlik ta'limini barcha bosqichlarga integratsiya qilish, kadrlar malakasini oshirishning uzluksiz tizimini yaratish, raqamli ko'nikmalar bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish, mentorlik va kouching dasturlarini kengaytirish kerak.

Raqamli transformatsiya sohasida: kichik biznesni raqamlashtirish uchun davlat dasturini ishlab chiqish, elektron tijorat platformalarini rivojlantirish, raqamli to'lov

tizimlarini kengaytirish, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalarini tadbirkorlik faoliyatiga tatbiq etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. (2024). O'zbekiston raqamlarda 2024. - Toshkent.
3. Schumpeter, J.A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.
4. Drucker, P.F. (1985). Innovation and Entrepreneurship. Harper & Row.
5. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press.
6. Storey, D.J. (1994). Understanding the Small Business Sector. Routledge.
7. Acs, Z.J., & Audretsch, D.B. (2003). Handbook of Entrepreneurship Research. Kluwer Academic Publishers.
8. OECD. (2023). SME and Entrepreneurship Outlook 2023. OECD Publishing.
9. World Bank. (2024). Doing Business Report: Uzbekistan. Washington, DC.
10. Bekmurodov, A.Sh. (2018). O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. - Toshkent: Fan.
11. Ziyodullayev, Sh.K. (2020). Hududiy iqtisodiyotni boshqarishda kichik biznesning o'rni. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3(47), 45-56.
12. Sirojiddinov, N.T. (2021). Tadbirkorlik muhitini yaxshilash: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Iqtisodiyot.
13. Busygin, A.V. (2003). Predprinimatelstvo. - Moskva: Delo.
14. Gorfinkel, V.Ya. (2009). Maloe predprinimatelstvo: organizatsiya, upravlenie, ekonomika. - Moskva: YUNITI.
15. Tepman, L.N. (2012). Malyy biznes: opyt zarubezhnyx stran. - Moskva: YUNITI-DANA.
16. Audretsch, D.B. (2007). The Entrepreneurial Society. Oxford University Press.
17. Baumol, W.J. (2010). The Microtheory of Innovative Entrepreneurship. Princeton University Press.
18. UNDP. (2023). Human Development Report 2023. United Nations Development Programme.
19. Asian Development Bank. (2024). Small and Medium-Sized Enterprise Development in Central Asia. ADB.
20. Karimov, N.X. (2022). Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari. Iqtisod va moliya, 1(145), 23-34.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali



Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**